

XORAZM VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2020-yil 1-aprel holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentabrdagi “Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 274-son qaroriga muvofiq korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.



Vatanimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik sub'yeqtlariga ko'rsatilayotgan e'tibor


Vatanimizda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab izchil amalga oshirilib kelinayotgan islohotlar samarasi o'laroq, bugun iqtisodiyotning barcha sohalarida ulkan muvaffaqiyatlarga erishilmoqda. Respublikamiz iqtisodiy ko'rsatkichlari yildan-yilga yuqorilab bormoqda.

Mustaqilligimizning o'tgan davri davomida barcha sohalarda yuz berayotgan o'zgarishlar qatorida statistika sohasida ham ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdag'i jarayonlarni, o'zgarishlarni xalqaro talablarga mos ravishda statistik ko'rsatkichlarda aks ettirib borish maqsadida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib borilmoqda.

O'z o'mnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, **2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)** shakllantirildi.


Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlari soni, birlikda



2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra Xorazm viloyatida 21 188 ta korxona va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 22,3 foizga o'sgan. Natijada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 3 531 ta (21,5 %) ga o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 19 921 tani tashkil etgan.
















Ro‘yxatdan o‘tgan tijorat korxonalarini soni, birlikda



Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar

Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rilganda 26,8 % savdo, 17,0 % sanoat, 10,0 % qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 9,1 % qurilish, 6,6 % yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar, 3,5 % tashish va saqlash, 2,2 % sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 1,3 % axborot va aloqa hamda 23,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda



Tumanlar bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda



Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar, tumanlar kesimida taqsimlanganda Urganch shahri (5 001 ta), Urganch tumani (2 290 ta), Xiva shahri (1 873 ta), Xiva tumani (1 727 ta), Xonqa tumani (1 635 ta), Hazorasp tumani (1 515 ta), Qo’shko’pir tumani (1 372 ta), Gurlan tumani (1 353 ta), Yangiariq tumani (1 252 ta), Bog‘ot tumani (1 129 ta), Shovot tumani (1 064 ta) va Yangibozor tumani (977 ta) hissasiga to‘g‘ri keladi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar


Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 19 921 tani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 3 531 ta (21,5 %) ga o‘sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar ulushi, foizda



Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar, tumanlar kesimida taqsimlanganda Urganch shahri (4 599 ta), Urganch tumani (2 140 ta), Xiva shahri (1 778 ta), Xonqa tumani (1 591 ta), Xiva tumani (1 576 ta), Hazorasp tumani (1 458 ta), Qo‘shko‘pir tumani (1 302 ta), Gurlan tumani (1 299 ta), Yangiariq tumani (1 194 ta), Bog‘ot tumani (1 054 ta), Shovot tumani (987 ta) va Yangibozor tumani (943 ta) hissasiga to‘g‘ri keladi.


**Tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan
korxona va tashkilotlar soni, birlikda**




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

2020-yil yanvar-mart oylarida 1 654 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 11,6 foizga kamdir. Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Urganch shahri (286 ta), Yangibozor (167 ta), Gurlan (160 ta), Qo‘shko‘pir (152 ta) tumanlari hissasiga to‘gri keladi. Aksincha, kamroq qismi esa Shovot (70 ta), Hazorasp (85 ta), Xiva (96 ta), Bog‘ot (111 ta) tumanlari hissasiga to‘gri keladi.

2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo‘yicha soni, birlikda




2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, foizda





Yangi tashkil etilgan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganida savdo (459 ta), sanoat (397 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (380 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (106 ta), qurilish (93 ta), tashish va saqlash (37 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (34 ta), axborot va aloqa (23 ta) va boshqa faoliyat turlari (125 ta) hissasiga to'g'ri kelgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo‘yicha faoliyat
ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda**



2020-yil 1-aprel holatiga ko‘ra 16 836 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, shundan oilaviy korxonalar – 3 044 ta, xususiy korxonalar – 5 093 ta, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar – 8 437 ta va boshqalar 262 tani tashkil etgan.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni va ulushi,
birlikda va foizda**



Kichik korxona va mikrofirmalar

2020-yil 1-aprel holatiga ko‘ra viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 16 742 tani tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 25,5 % ga oshgan.

Tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

	Kichik korxona va mikrofirmalar soni	<i>shundan:</i>	
		kichik korxonalar	mikrofirmalar
Xorazm viloyati	16 742	928	15 814
Urganch sh.	3 904	323	3 581
Xiva sh.	1 645	58	1 587
tumanlar:			
Bog‘ot	823	41	782
Gurlan	1 078	65	1 013
Qo‘shko‘pir	1 060	33	1 027
Urganch	1 863	128	1 735
Hazorasp	1 148	56	1 092
Xonqa	1 338	76	1 262
Xiva	1 363	37	1 326
Shovot	751	44	707
Yangiariq	997	31	966
Yangibozor	772	36	736

2020-yil 1-aprel holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar kesimida ulushi, foizda

Eng katta ulushi

- Urganch sh.
23,3 %
- Urganch
11,1 %
- Xiva sh.
9,8 %
- Xiva
8,1 %
- Xonqa
8,0 %
- Hazorasp
6,9 %

Eng kichik ulushi

- Gurlan
6,5 %
- Qo‘shko‘pir
6,3 %
- Yangiariq
6,0 %
- Bog‘ot
4,9 %
- Yangibozor
4,6 %
- Shovot
4,5 %


Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya’ni 3 904 tasi (23,3 %) Urganch shahri, 1 863 tasi (11,1 %) Urganch tumani, 1 645 tasi (9,8 %) Xiva shahri hamda 1 363 tasi (8,1 %) Xiva tumani hissalariga to‘g‘ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan jami 16 742 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 5 330 ta (31,8 %) - savdo, 3 350 ta (20,0 %) - sanoat, 1 935 ta (11,6 %) - qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 1 794 ta (10,7 %) - qurilish, 1 283 ta (7,7 %) - yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasi, 687 ta (4,1 %) - tashish va saqlash, 373 ta (2,2 %) - sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 243 ta (1,5 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 1 747 tasi (10,4 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni, birlikda


01.04.2019-y.

01.04.2020-y.



2020-yil yanvar-mart oylarida 1 633 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 171 taga kamdir. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar tumanlar kesimida taqsimlanganda Urganch shahri (283 ta), Yangibozor (166 ta), Gurlan (159 ta), Qo‘siko‘pir (150 ta), Urganch (137 ta), Xonqa (135 ta), Xiva shahri (133 ta), Yangiariq (116 ta), Bog‘ot (110 ta), Xiva (93 ta), Hazorasp (82 ta), Shovot (69 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, foizda

	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi 23,2 %		Tashish va saqlash 2,3 %
	Sanoat 24,2 %		Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar 6,5 %
	Qurilish 5,7 %		Axborot va aloqa 1,4 %
	Savdo 28,1 %		Sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish 2,1 %
			Boshqa turlar 6,5 %


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda asosiy qismi savdo (459 ta), sanoat (396 ta), qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (379 ta) va yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (106 ta) sohalarida tashkil etilgan. Axborot va aloqa (23 ta), sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (34 ta) hamda tashish va saqlash (37 ta) sohalarida esa kamrok tashkil etilgani kuzatilmoqda.




Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yil 1-aprel holatiga ko‘ra 3 243 tani tashkil etib, ulardan 3 044 tasi yoki 93,9 % faoliyat ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro‘yxatidan o‘tganlarning hamda faoliyat ko‘rsatayotganlarning umumiy soni o‘rtacha 84,2 % ga oshganligini ta’kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar soni, *birlikda*




Oilaviy korxonalarning soni to‘g‘risida ma’lumot, *birlikda*



**2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni va ulushi, birlikda va foizda**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Xorazm viloyati	659	100,0
Urganch sh.	72	10,9
Xiva sh.	72	10,9
<i>tumanlar:</i>		
Bog‘ot	46	7,0
Gurlan	43	6,5
Qo‘shko‘pir	69	10,5
Urganch	45	6,8
Hazorasp	18	2,7
Xonqa	88	13,3
Xiva	26	4,0
Shovot	19	2,9
Yangiariq	69	10,5
Yangibozor	92	14,0

2020-yil yanvar-mart oyalarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, foizda




Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 31,4 % (207 ta) sanoat, 25,8 % (170 ta) savdo, 23,1 % (152 ta) qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 11,2 % (74 ta) yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlari, 1,4 % (9 ta) sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 0,6 % (4 ta) axborot va aloqa, 0,3 % (2 ta) qurilish, 0,3 % (2 ta) tashish va saqlash, hamda 5,9 % (39 ta) boshqa faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.


Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yil 1-aprel holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 150 tani tashkil etdi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan 69 taga yoki 85,2 % ga o‘sgan. Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Urganch sh. 45 ta (30,0 %), Urganch tyumani 19 ta (12,7 %) va Xiva sh. 14 ta (9,3 %) tashkil etgan. Eng kam ulushi esa Yangiariq 6 ta (4,0 %), Qo‘shko‘pir 6 ta (4,0 %), Gurlan 7 ta (4,7 %) hamda Xonqa 7 ta (4,7 %) tumanlarida tashkil etgan.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining 92 tasi qo‘shma, 58 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keladi.



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning ulushi, foizda



Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni, birlikda

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo‘shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Xorazm viloyati	150	92	58
Urganch sh.	45	29	16
Xiva sh.	14	9	5
<i>tumanlar:</i>			
Bog‘ot	8	7	1
Gurlan	7	6	1
Qo‘shko‘pir	6	4	2
Urganch	19	6	13
Hazorasp	9	3	6
Xonqa	7	4	3
Xiva	11	5	6
Shovot	10	8	2
Yangiariq	6	4	2
Yangibozor	8	7	1

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020-yil yanvar-mart oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 21 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8 taga ko'paygan. Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Urganch shahar 10 ta (47,5 %), Urganch tumani 3 ta (14,3 %) va Xiva shahar 3 ta (14,3 %) hissalariga to'g'ri keladi. Kamroq ulushi esa Xonqa 1 ta (4,8 %), Xiva 1 ta (4,8 %) va Yangibozor 1 ta (4,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda



2020-yil yanvar-mart oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning Turkmaniston (5 ta), Rossiya (5 ta), Turkiya (5 ta), Eron (2 ta), AQSh (1 ta), Shveytsariya (1 ta), Qozog'iston (1 ta) va Koreya (1 ta) davlatlari rezidentlari ishtirokida yangi tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, qurilish (6 ta), savdo (5 ta), sanoat (4 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (2 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (1 ta) va boshqa faoliyat turlari (1 ta) hissasiga to'g'ri keladi.

**2020-yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni,
foizda**

